

Maxmudov Nosir,
iqtisod fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;
L.Azimova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

«YASHIL» IQTISODIYOT ASOSIDA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH

Annotasiya

Ushbu maqolada «yashil» iqtisodiyot va uni asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari yoritilgan. Xususan, «yashil» iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar va ularning natijalari o'laroq mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanish jarayonlari hamda bugungi erishilgan natijalar tahlil qilingan. Shuningdek, «yashil» iqtisodiyotni jadal rivojlantirish asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: «yashil» iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, «yashil» texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish, energiya.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ «ЗЕЛеной» ЭКОНОМИКИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы «зеленой» экономики и обеспечения экономического роста на ее основе. В частности, были проанализированы реформы, направленные на переход к «зеленой» экономике и их результаты, процессы развития возобновляемых источников энергии в нашей стране и результаты, достигнутые на сегодняшний день. Также разработаны предложения по обеспечению экономического роста на основе опережающего развития «зеленой» экономики.

Ключевые слова: «зеленая» экономика, экономический рост, «зеленые» технологии, экономическое развитие, энергетика.

ENSURING ECONOMIC GROWTH BASED ON A GREEN ECONOMY

Abstract

This article discusses the issues of the "green" economy and ensuring economic growth based on it. In particular, the reforms aimed at the transition to a "green" economy and their results, the processes of development of renewable energy sources in our country and the results achieved to date were analyzed. Proposals have also been developed to ensure economic growth based on the accelerated development of the "green" economy.

Keywords: "green" economy, economic growth, "green" technologies, economic development, energy.

Kirish

Global rivojlanishning bugungi sharoitida insoniyat uchun yangi tahdidlar vujudga kelmoqda. Dunyo aholisi soni oshib, tabiiy resurslar zaxirasi esa muttasil

ravishda kamayib bormoqda. Bunday nomutanosiblik jahon hamjamiyatini tang ahvolga solib qo'yayotgani ayni haqiqat. Xususan, global ekologik muammolarning keskinlashuvi kuzatilmoqda. Ekspertlar vaziyatni o'nglash uchun jahon iqtisodiyotida «yashil taraqqiyot» tamoyillarini joriy etish zarurligini ta'kidlamoqdalar. Mazkur yondashuv Birlashgan mamlakatlar tashkiloti (BMT)ning barqaror taraqqiyot maqsadlarida ham o'z ifodasini topgan.

Shu boisdan mamlakatimizda ham muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish (xususan, 24-maqсад: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish), O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida «yashil» va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda [1].

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning «2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi [2].

Mazkur qaror bilan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan:

- issiqxona gazlarining ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;

- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln gektargacha maydonda suv tejavchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;

- yiliga 200 mln ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 mlrd. dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;

- qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish va boshqalar.

Bundan tashqari, ushbu qaror bilan quyidagilar ham tasdiqlandi:

1. Sanoat tarmoqlarida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash bo'yicha konsepsiya;

2. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasi;

3. 25 ta korxonada va tashkilotda ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sigʻimi koʻrsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilgʻi-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari.

Taʼkidlash joizki, iqtisodiyot va jamiyatni salbiy oʻzgarishlarga bardosh turadigan hamda ularning oqibatlaridan tezda tiklanadigan barqaror rivojlanish konsepsiyasi barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish masalalarini birinchi oʻringa chiqardi [3].

Yangi rivojlanish modelini shakllanish jarayonida barqaror rivojlanish paradigmasini evolyusiyasi «yashil» iqtisodiyot konsepsiyasini yaratilishiga sababchi boʻldi va jamiyat hamda iqtisodiyot tabiiy tizimlari bilan birga ham ohang tarzda boʻlishi qayd etila boshlandi [4].

«Yashil» iqtisodiyot energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiya muqobil manbalariga, organik qishloq xoʻjaligiga, ekodevelopmentga (atrof muhitga kam taʼsir koʻrsatgan holda qurilishga), ilgʻor logistikaga asoslanadi [5].

Demak, «yashil» iqtisodiyotning muhim komponenti qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish va foydalanish hisoblanadi, bu jihatdan Oʻzbekistonning salohiyati ancha yuqori hisoblanadi.

Jahonda miqyosida elektr energiyasini ishlab chiqarish anʼanaviy energiya ishlab chiqarish usulidan foydalanadi. Yaʼni, tabiiy uglovodlarni yoqish orqali issiqlik energiya stasiyalari asosida umumiy elektr energiyasi isteʼmolining qariyb 70-80 foizi ishlab chiqarilsa, qolgan 30-20 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida ishlab chiqariladi. Jumladan, qayta tiklanadigan energiya AQSH elektr energiyasining 20 foizini tashkil etib, shundan shamol energiyasi 9,2 foiz, gidroenergetika 6,3 foiz, quyosh energiyasi 2,8 foiz, bioenergiya 1,3 foiz va geotermal energiyasi 0,4 foiz ulushga ega.

Xalqaro moliyaviy institutlarning hisob-kitobiga qaraganda, mamlakatimizda muqobil energiya (ayniqsa, quyosh energiyasi)ning yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilgʻi ekvivalentiga teng. Bu real ehtiyojimizdan uch karra koʻp. Boz ustiga, «yashil energetika» sohasidagi loyihalarni amalga oshirish Oʻzbekistonda yaqin oʻn yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga koʻpaytirish imkonini beradi [6].

Tahlillarga koʻra, mamlakatimiz qayta tiklanadigan energiya quvvatlariga ega va uning rivojlantirish imkoniyati yuqori davlat hisoblanadi. Xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik imkoniyatlari quyosh energiyasi 98,8 foiz, gidroenergiya 1,0 foiz va shamol energiyasi 0,2 foizni tashkil etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda elektr energiyasiga boʻlgan talab asosini issiqlik elektr energiya stasiyalari orqali qondiriladi. Bunday anʼanaviy energiya ishlab chiqarishida turli organik yoqilgʻilardan jumladan, tabiiy gaz (84,7 %), neft va gaz kondensati (12,9 %) va toshkoʻmir (1,1 %) kabilardan foydalanib kelinmoqda.

2021-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi omillardan sohada foydalanilayotgan asosiy fondlar hajmi 2007,3 mlrd. soʻm va band boʻlgan xodimlarning oʻrtacha yillik soni 1751

kishini tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2015-yilga nisbatan asosiy fondlar hajmi qariyb 10,1 martaga oshgan bo'lsa, xodimlarning o'rtacha yillik soni 0,9 martaga kamayib ketgan (1-jadval).

1-jadval

Qayta tiklanuvchi energiya sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹

Yillar	Qayta tiklanuvchi energiya hajmi, mlrd. so'm	Asosiy fondlar hajmi, mlrd. so'm	Xodimlarning o'rtacha yillik soni, kishi
2015	836,4	198,2	1,9
2016	926,0	257,6	1,9
2017	1 049,0	221,2	1,7
2018	1 437,3	260,7	1,6
2019	2 135,4	182,0	1,7
2020	2 600,7	3,0	1,7
2021	3 103,1	2 007,3	1,8

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4422-son qarori bilan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilab olindi hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlari qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlandi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish maqsadli parametrlari²

№	Ko'rsatkich nomi	Ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish prognozlarini, MVt		Elektr energiyasi ishlab chiqarish ulushi, foiz	
		2022 y.	2023-2030 yy.	2018 y.	2030 y.
	Jami	2061,6	14017,8	100	100
1	An'anaviy energetika	2259,4	10910,2	90	75
	<i>Shu jumladan, quvvatlarni foydalanishdan chiqarish</i>	740	4280	-	-
2	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari	542,2	7387,6	10	25
	<i>Shundan:</i>				
2.1	Gidroenergetika	42,2	1487,6	10	11,2

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

² <https://lex.uz/docs/4486125#4487088>

2.2	Quyosh energetikasi	400	4300	1	8,8
2.3	Shamol energetikasi	100	1600	-	5

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan maqsadli parametrlarga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 2030-yilga borib elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko'prog'iga yetkazish belgilangan. Shundan gidroenergetikaning ulushini 11,2 foizga, quyosh energetikasining ulushini 8,8 foizga va shamol energetikasi ulushining 5,0 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda.

Xulosa.

Aytish kerakki, mamlakatimizda «Yashil» iqtisodiyotni rivojlantirishga yetarlicha shart-sharoitlar mavjud, xususan muqobil energiyaning quyosh va shamol qolaversa, biomassa energiyasidan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Agar ushbu muqobil energiya manbalaridan foydalanish yo'lga qo'yilsa, nafaqat arzon energiyaga, balki ekologik toza energiya ishlab chiqarishiga erishiladi. Bu esa mamlakatimizdagi ekologik muammolardan birining bartaraf etilishi hamda alohi va tadbirkorlik subyektlarini uzluksiz elektr va issiqlik energiyalari bilan ta'minlash imkonini beradi.

Fikrimizcha, mamlakatimizda «yashil» iqtisodiyotni jadal rivojlantirish asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1. «Yashil» iqtisodiyotga o'tishda aholini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ularning faolligini oshirish;
2. Mavjud tabiiy resurslar hamda imkoniyatlardan barqaror va samarali foydalanish;
3. «Yashil» o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va bunda inson kapitalini rivojlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
4. «Yashil» iqtisodiyot ko'lamini kengaytirish va rivojlantirish uchun mazkur sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
5. Real sektor korxonalarini zamonaviy tejamkor texnologiyalar bilan modernizatsiyalash, chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etish va ularni qayta ishlashni rag'batlantirish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish;
6. «Yashil» iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli innovasion ishlanmalar va loyihalarni moddiy qo'llab-quvvatlash hamda shart-sharoitlar yaratib berish orqali iqtisodiy o'sishni yanada barqarorlashtirishga erishish.

Bularning zamirida mamlakat iqtisodiy o'sishini barqarorlashtirish va aholi yashashi uchun qulay sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda «2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-436-son qarori.
3. Isadjanov A.A. «Yashil iqtisodiyot»: xususiyatlari va rivojlanish omillari // Iqtisodiyot va ta’lim. 2020 № 1. 13-b.
4. Perelet R.A. Napravleniya strategii «zelengo rosta». //http://rospromeco.com/expertnoe-mnenie/28-analytic/expertnoe-mnenie/94-mnenie-7
5. Towards a Green Economy. Ways to Sustainable Development and Poverty Alleviation Is a General Report for Representatives of Power Structures. Available at: http://old.ecocongress.info/5_congr/docs/doklad.pdf (accessed: 30.11. 2017).
6. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/9449/>
7. <https://stat.uz>